



“Arxeologiyada GIS tadqiqotlari” nomli onlayn ma’ruza bo’lib o’tdi

O’zR FA Milliy arxeologiya markazi ilmiy xodimlari va doktorantlari tomonidan onlayn ma’ruzalar tashkil etilmoqda. Ushbu ma’ruzalar ZOOM platformasida nafaqat O’zbekiston, balki Markaziy Osiyo va Yevropa mamlakatlarida ham qiziqish bilan tinglanmoqda. Ana shunday ma’ruzalardan biri FA Milliy arxeologiya markazi katta ilmiy xodimi H.Hoshimov tomonidan amalga oshirildi. Ma’ruza “Arxeologiyada GIS tadqiqotlari” deb nomlandi. Uning ta’kidlashicha, so’nggi yillarda arxeologiya fanida olib borilayotgan tadqiqotlarda geografik axborot texnologiyalariga asoslangan tadqiqotlar ko’lami kengaymoqda. GIS bu avtomatlashtirilgan ma’lumotlar tizimi bo’lib, uning asosini fazoda qayta ishlanadigan geografik ma’lumotlar tashkil etadi. Arxeologik obyektlarning fazoviy bog’lanishi bu tizimning ahamiyatini oshiradi. GIS ma’lumotlarni boshqarish uchun kuchli va moslashuvchan tizimdir. Uning oddiy ma’lumotlar bazasini boshqaruvchi tizimdan farqi u 2 yoki 3 o’lchovli fazoviy ma’lumotlarni geografik holatini aniq ko’rsata oladi. Eng asosiysi GIS alohida geografik hududlarning arxeologik axborot tizimlarini yaratish, arxeologik yodgorliklarni qazish rejalarini, qadimiy xaritalarni o’rganish va paleorelefini yaratish uchun qulay va faol tizimdir.



Umuman olganda ma’ruzada GISning paydo bo’lishi tarixi va uning bosqichlari va qaysi sohalarda ishlatilishi haqida ma’lumotlar berildi. tadqiqotchi yana GIS programmasi uchun asosiy hisoblangan ma’lumotlar bazasi va ularning turlari haqida, ya’ni VEKTOR va RASTR ma’lumotlarni yaratish yoki internet tarmog’i orqali sun’iy yo’ldoshlarning ma’lumotlar bazasidan foydalanish kabi masalalarga to’xtalib o’tdi.

Ma’ruzachi GIS programmasining arxeolog-tadqiqotchi uchun bir qator qulayliklar berishini, ya’ni vaqtning tejaliishi va mavzuga doir ma’lumotlar ba’zasini yoki xaritasini yaratishi mumkinligini alohida ta’kidladi.